

**RAQAMLI TEXNALOGILALAR DAVRIDA JAMIYATDA ADOLATNI
TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY PRINSPLARNING
AHAMIYATI, KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA**

Shukurov Shukurullo Shokir og'li

*Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi Xalqaro Hamkorlik
bo'yicha Koreya Agentligi ofisi (KOICA) WFK bo'limi koordinatori*

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada raqamli davrda fuqarolar alohida ahamiyat berayotgan va davlat tomonidan kafolatlanishini talab qilayotgan adolatlilik (fairness) tushunchasi konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Koreya Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida raqamli davrdagi adolatlilik masalasi o'rganilib, adolatlilik (fairness) va adolat (justice) tushunchalarining mazmuni hamda o'zaro farqlari aniqlashtiriladi. Adolatlilikning konstitutsiyaviy tushunchasi yoritiladi, so'ng ushbu tushuncha asosida raqamli davrda yuzaga kelayotgan adolatlilik muammolari tahlil qilinadi va so'ngida, mazkur muammolarni bartaraf etishning huquqiy yechimlari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar

adolatlilik (fairness), adolat (justice), raqamli texnologilar davri, taqsimlovchi adolat (distributive justice), moddiy (real) tenglik, jamoat farovonligi (public welfare), ijtimoiy manfaat (public interest/publicness), adolat tamoyili.

Аннотация

В статье с конституционно-правовой точки зрения исследуется понятие справедливости (fairness), которое в условиях цифровой эпохи приобретает особую значимость и всё чаще рассматривается гражданами как ценность, требующая надлежащего обеспечения и гарантирования со стороны государства. В рамках Конституции Республики Корея анализируются конституционно-правовые основы обеспечения справедливости в цифровую эпоху, раскрываются содержание и сущностные особенности понятий fairness и justice, а также определяются их концептуальные различия. Особое внимание уделяется раскрытию конституционно-правовой природы понятия fairness как самостоятельной правовой категории. На основе проведённого анализа рассматриваются основные проблемы обеспечения справедливости в условиях цифровой трансформации общества и развития цифровых технологий. В заключение предлагаются правовые подходы к решению выявленных проблем, а также механизмы совершенствования конституционно-правового регулирования, направленные на обеспечение справедливости в цифровую эпоху.

Ключевые слова

справедливость (fairness), правосудие/справедливость (justice), эпоха цифровых технологий, распределительная справедливость (distributive justice), материальное (реальное) равенство, общественное благосостояние (public welfare), публичный интерес (public interest/publicness), принцип справедливости.

Abstract

This article examines the concept of fairness from a constitutional law perspective, arguing that in the digital era it has become an increasingly significant value that citizens expect the state to guarantee and protect. Within the framework of the Constitution of the Republic of Korea, the article analyzes the constitutional foundations for ensuring fairness in the digital age, clarifies the meaning and essential characteristics of the concepts of fairness and justice, and identifies the conceptual distinctions between them. Particular attention is devoted to examining the constitutional nature of fairness as an independent constitutional and legal concept. Building upon this conceptual framework, the article explores the major challenges to ensuring fairness arising from digital transformation and the rapid development of digital technologies. Finally, it proposes legal approaches to addressing these challenges and presents mechanisms for improving the constitutional and legal framework aimed at ensuring fairness in the digital era.

Key words

fairness, justice, the digital era, distributive justice, substantive (de facto) equality, public welfare, public interest (publicness), the principle of fairness.

Kirish. Raqamli texnologiya davr bilan birga yuzaga kelgan jamiyatdagi o'zgarishlar siyosiy qarama-qarshiliklarga sabab bo'lgan bo'lib, bu jarayonlar Koreya Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan Koreya fuqarolari jamiyatdagi adolatlilik (fairness) ta'minlash masalasiga yanada katta e'tibor bera boshladilar hamda, jamiyatdagi ijtimoiy nohaqlik va adolatsizlikga chek qo'yish va unda aholing zaif qatlamini himoyalash, jamiyatda adolatlilikni ta'minlash zarurligi haqidagi tushunchalari mustahkamlandi. Hozirgi kunda adolatlilik masalasi Koreya jamiyatida eng dolzarb va fuqarolar eng katta jiddiy munosabat bildirayotgan mavzulardan biri ekanligini aytish mubolag'a bo'lmaydi.

Adolatlilik (fairness) deganda odatda xolislik, haqqoniylik va to'g'rilik tushuniladi. Amaldagi Koreya Respublikasi Konstitutsiyasida adolatlilik tushunchasi 114-moddada saylovlar va referendumlarni adolatli boshqarish tamoyili sifatida mustahkamlangan. Ayrim qarashlarga ko'ra, adolatlilik (fairness) asosan moddiy va nomoddiy taqsimotning xolis va teng amalga oshirilishiga urg'u bersa, adolat (justice) esa moddiy va nomoddiy taqsimotdan ko'ra to'g'rilik va haqqoniylik tamoyillariga ko'proq e'tibor

qaratadi. Biroq, taqsimlovchi adolat (distributive justice) tushunchasidan ham ko'rinib turibdiki, adolat taqsimot masalasini chetlab o'tmaydi, balki uni ham o'z ichiga oladi.

Adolat (justice) tushunchasi ko'pincha moddiy (real) tenglik konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayrim hollarda adolatlilik (fairness) ham aynan shu mazmundagi adolat tushunchasi bilan bir ma'noda qo'llaniladi. Biroq, adolatlilik tushunchasi jamoat farovonligi (public welfare) yoki ijtimoiy manfaat (public interest/publicness) tushunchalaridan farq qiladi.

Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida "ijtimoiy illatlar va adolatsizlikni bartaraf etish", "erkinlik va uyg'unlikka asoslangan erkin demokratik konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash", "siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida har bir shaxs uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash" hamda "har bir insonning qobiliyatini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratish orqali xalq va kelajak avlodlarning xavfsizligi, erkinligi va farovonligini ta'minlash" davlatning asosiy maqsadlari sifatida belgilangan. Ushbu qoidalar Konstitutsiyada adolatlilik tamoyilining asosiy g'oyaviy manbai hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyada nazarda tutilgan asosiy huquq va erkinliklarning kafolatlanishi hamda konstitutsiyaviy prinsiplarning amalga oshirilishi adolatlilikni ta'minlashning huquqiy poydevorini yaratadi.

Xususan, adolatlilik inson qadr-qimmati va baxtli hayot kechirish huquqiga asoslanib, Konstitutsiyaning 11-moddasida "hech kim jinsi, dini yoki ijtimoiy mavqeiga ko'ra jamiyatning hech bir sohasida kamsitilmasligi kerak" degan tenglik tamoyili orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 114-moddasi saylovlar va referendumlarni adolatli boshqarish majburiyatini belgilash orqali adolatlilik tamoyilini bevosita mustahkamlaydi.

Adam Smit tomonidan ilgari surilgan klassik liberal iqtisodiy nazariya jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklardan kelib chiqadigan real (moddiy) tengsizlik bozor iqtisodiyotiga asoslangan Koreya jamiyatidagi muammolarini bartaraf eta olmadi. Natijada raqamli texnologilar ta'sirida ijtimoiy ziddiyat va qarama-qarshiliklar kuchayib, jamiyatning barqarorligi hamda jamoat xavfsizligiga salbiy xavf tug'ildi. Shu munosabat bilan Koreya yangi hukumati zamonaviy konstitutsiyaviy davlatda faqat rasmiy erkinlik va tenglik emas, balki real erkinlik va real tenglikni ta'minlash hukumatning muhim vazifasi sifatida qarab kelmoqda. Bu siyosatning asosiy ko'rinishlari minimal ish haqi belgilash, mehnat sharoitlarini qonun bilan tartibga solish hamda nazorat qilish va ijtimoiy himoya choralarini joriy etish orqali davlatning jamiyat hayotida faol ishtirokida o'z aksini topgan.

Shu maqsadda Koreya Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagi huquqlar kafolatlangan:

- har kimning qobiliyatiga qarab teng ta'lim olish huquqi (31-modda);
- mehnat qilish huquqi va eng kam ish haqi tizimi (32-modda);

ayollar mehnatini alohida himoya qilish hamda ishga qabul qilish, ish haqi va mehnat sharoitlarida tazyiq va kamsitishlarni taqiqlash (32-modda);

munosib turmush kechirish huquqi;

ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish hamda fuqarolarni himoya qilishga oid konstitutsiyaviy kafolatlar.

Mazkur normalarning barchasi Koreya Respublikasida adolatlilikni ta'minlashga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy asoslar sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, tegishli huquqiy tartib-taomil (due process) tamoyili ayrim hollarda qonunning mazmuni adolatli, oqilona va asosli bo'lishini ham talab qiladi. Shu sababli Koreya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ayrim ishlarni ko'rib chiqishda mutanosiblik (ortiqcha cheklashni taqiqlash) tamoyili bilan bir qatorda tegishli huquqiy tartib-taomil tamoyilini ham qo'llaydi.

Muxokama. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida Konstitutsiyadagi jamiyat a'zolarining o'zaro tenglik tamoyili yoki iqtisodiy faoliyatda demokratik-huquqiy normalar bilan to'liq tartibga solib bo'lmaydigan yangi huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Shu sababli, ushbu yangi muammolarga samarali yechim topish uchun Konstitutsiyaviy-huquqiy adolatlilik tamoyilini alohida mustaqil konstitutsiyaviy prinsip sifatida e'tirof etish hamda uni amaliyotga tatbiq etuvchi huquqiy institutlarni shakllantirish zarur ekanligi bugungi Koreya huquq sohasi vakillari orasida birlamchi muhokama mavazusi bo'lib kelmoqda.

Bu jarayonlar eng avvalo iqtisodiy sohasida bozor raqobati va boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar konstitutsiyaviy huquqning barcha huquqiy normalari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun raqamlashtirish jarayonida adolatlilik ta'minlash va qonun ustuvorligi tamoyilining buzilishi quyidagi huquq prinsiplariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin:

jamiyat a'zolarining o'zaro tenglik huquqi;

kasb tanlash va mehnat qilish erkinligi;

fuqarolik munosabatlar va shartnoma tuzish erkinligi;

sudga murojaat qilish huquqi va boshqa erkinliklar.

Mazkur sohada muhim ahamiyatga ega bo'lgan konstitutsiyaviy tamoyillar quyidagilardan iborat:

qonun ustuvorligi (Rule of Law);

substansial tegishli huquqiy tartib-taomil (Substantive Due Process);

bir qilmish uchun ikki marta jazolashni taqiqlash (Double Jeopardy);

qonunning orqaga qaytish kuchi bilan jazolashni taqiqlash (Ex Post Facto).

Raqamli texnologiyalar fuqarolarning demokratik jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsada, hali to'liq shakllanib ulgurmagan ushbu yangi raqamli makonda adolatni ta'minlash va barchaning qonun oldida tenglik prinsipini ta'minlashdagi to'sqinlik qilish holatlari ham tobora ko'payib bormoqda. Bu ayniqsa bugungi iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlarini qondirish sohalarida ko'rish mumkin. Kyun

Hee Universiteti (Koreya) professori Son Hyeung Seobning fikiga ko'ra Koreya jamiyatida raqamlashatirish turli sohalarida keng joriy etilishi ortida iqtisodiy sohada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli platformlardan keng foydalanish davri boshlanda va raqamli platforma kompaniyalarining monopoliyalashuvi yuzaga keldi. Raqamli bozorlarda ayrim yirik kompaniyalar hukmron mavqeni egallashi natijasida bozorda tenglik va shaffof raqobatni izdan chiqishiga va ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ustidan nazorat oz sonli korxonalar qo'liga jamlanishiga olib keldi. Natijada bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarining adolatni ta'minlash zaiflashib, raqamli iqtisodiyotda yangi turdagi tengsizlik va adolatsizliklar yuzaga kelmoqda. professori Son Hyeung Seob o'z qarashlarida platforma kompaniyalari iqtisodiy jihatdan qanchalik yiriklashsa, kichik tadbirkorlarning adolatsiz raqobat sharoitida faoliyat yuritishga majbur bo'lish ehtimoli shunchalik ortadi. Shu sababli, bozorda hukmron mavqega ega korxonalarni tartibga soluvchi amaldagi Adolatli savdo to'g'risidagi qonun bilan bir qatorda, raqamli platformalarga xos munosabatlarni tartibga soluvchi alohida "Platformalar adolatliligi to'g'risidagi qonun" (Platform Fairness Act)ni qabul qilish masalasi muhokama qilina boshlandi.

Bugungi kunda Koreyada yana bir ahamiyat bilan kuzatilayotgan jarayon bu Davlat va xususiy sektorda "avtonom boshqaruv (governance)"ni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar hamda ma'lumotlarni sun'iy intellekt (AI) orqali tahlil qilish va baholash usullaridan foydalanish tobora kengayib borishidir¹. Bunday tizimlar yuqori tezlik bilan vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish imkoniyati tufayli boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq tizimning to'liq xavfsizlik va xuquqiy jixatlarlar to'liq ta'minlanmaganligi boyis ma'lumotlarning sizib chiqish holatlari ham bo'lib turibdi. Shu bilan birga AIga turtki berilgan dastlabki ma'lumotlarning ijtimoiy va huquqiy xarakteri xato yoki asoslanmagan shaklda bo'lsa AI ham kelgusida anashu xatolarni takrorlar ekan.

Bunga misol sifatida 2021-yil yanvar oyida Koreyada ishlab chiqilgan "Iruda (이루다)" nomli sun'iy intellekt chatboti bilan bog'liq voqea keltiriladi. Mazkur chatbotdan foydalanuvchilarning 17 milliondan ortiq KakaoTalk xabarlarini tashqi manbalarga sizib chiqib, ayrim foydalanuvchilarning haqiqiy manzili, ismi va bank hisob raqamlariga oid ma'lumotlari oshkor bo'lgan².

Raqamli davrda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish jarayonida shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsning huquqlarini himoya qilish eng muhim vazifalardan biridir. Konstitutsiya shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligini kafolatlaydi hamda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashni cheklash huquqini ta'minlaydi.

Raqamli davrda ushbu huquqlar hurmat qilinishi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik yanada kuchaytirilishi hamda adolatlilik va shaxs

¹ Usami Makoto (tahrirchi), *Sun'iy intellekt sabab o'zgarayotgan huquq va jamiyat*, Iwanami Shoten, 2020, 67-bet.

² <https://www.bbc.com/korean/news-55659434>.

huquqlari ishonchli himoya qilinishi zarur. Davlat raqamli va sun'iy intellekt boshqaruvi (AI governance)ni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini nazorat qilish, huquqiy himoya mexanizmlarini yaratish va tegishli yechimlarni ishlab chiqishni ham davom ettirishi lozim.

Xulosa. Davlatning mavjud bo'lishi va Konstitutsiyaga muvofiq turli institutlarni tashkil etishdan asosiy maqsad — fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ularning farovonligini oshirish hamda konstitutsiyaviy asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashdir. Shu sababli raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (AI) rivoji ham Konstitutsiya ko'zlagan quyidagi maqsadlarga xizmat qilishi lozim:

insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash;

ijtimoiy nizolarni samarali tartibga solish;

jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi umumiy ne'matlarni kengaytirish.

Koreya Respublikasi Konstitutsiyasida adolatlilik tamoyili Konstitutsiyaning 11-moddasida nazarda tutilgan amaliy tenglik (substantive equality) hamda 119-moddasida belgilangan iqtisodiy erkinlik va ijodkorlikni hurmat qilish prinsiplari orqali o'z ifodasini topgan.

Huquqiy nuqtai nazardan Koreya va O'zbekiston Konstitutsiyalarida "adolat" alohida bitta universal norma sifatida emas, balki bir nechta konstitutsiyaviy prinsiplarning tizimi sifatida shakllangan.

Koreya Respublikasi va O'zbekiston Konstitutsiyalarida adolat prinsipini ifodalovchi bir qator umumiy jihatlar mavjud. Avvalo, har ikki davlat Konstitutsiyasida inson qadr-qimmatini oliy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida e'tirof etilib, uni hurmat qilish va himoya qilish davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanadi. Shuningdek, har ikkala Konstitutsiyada asosiy huquq va erkinliklarni kafolatlash, ularning daxlsizligini ta'minlash hamda davlat tomonidan himoya qilinishiga oid normalar mustahkamlangan.

Bundan tashqari, qonun oldida tenglik prinsipi ikki davlat konstitutsiyaviy tizimining muhim asoslaridan biridir. Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa holatlariga ko'ra asossiz ravishda turlicha munosabatga duchor qilinishi, ya'ni diskriminatsiyaga yo'l qo'yilishi taqiqlanadi. Shu bilan birga, davlat hokimiyati organlarining faoliyati ham Konstitutsiya va qonunlar bilan chegaralanadi. Bu esa davlat hokimiyatini huquq bilan cheklash va inson huquqlarini davlatning mumkin bo'lgan o'zboshimchaliklaridan himoya qilishga xizmat qiladi.

Koreya va O'zbekiston Konstitutsiyalarida adolat prinsipini ifodalashda ayrim muhim farqlar mavjud. Koreya modelida qonun oldida tenglik, formal tenglik va oqilona differensial yondashuv asosiy o'rin tutib, adolat tushunchasi ko'p jihatdan Konstitutsiyaviy sud talqini orqali rivojlangan. O'zbekiston modelida esa tenglik prinsipi bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, mutanosiblik va inson manfaatlarini ustuvor qo'yish kabi normalar aniqroq ifodalangan. Shu sababli Koreyada adolat asosan tenglik

va asosiy huquqlar bilan, O'zbekistonda esa tenglik, ijtimoiy adolat, mutanosiblik va inson manfaatlarini bilan chambarchas bog'langan.

O'zbekistonning 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi adolatni faqat formal tenglik bilan cheklamay, uni ijtimoiy adolat va substantiv tenglikka yaqinlashtiruvchi mexanizmlar bilan boyitgan. Koreya modeli esa tenglik va asosiy huquqlarni Konstitutsiyaviy sud nazorati orqali chuqur rivojlantirgan. Shu sababli Koreya tajribasi O'zbekistonda "ijtimoiy adolat + tenglik + mutanosiblik" prinsiplarini sud amaliyotida yanada konkretlashtirish uchun qiyosiy-huquqiy model bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kang Myung-su, "2021-yilda Nohalol raqobatning oldini olish to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgartirishlarning tizimli uyg'unligi va ularni talqin qilishga oid tadqiqot – ma'muriy tartibga solishga asoslangan nohalol raqobatning oldini olish qonunining mohiyatiga e'tibor qaratgan holda", Pusan Milliy Universiteti Huquq tadqiqotlari jurnali, 63-jild, 4-son (umumiy 114-son), 2022-yil noyabr.
2. Kim Bom-su, Koreya jamiyatida adolat (fairness) nima?, Akanet nashriyoti, 2022.
3. Kim Won-ho, "Ma'lumotlar (Data) huquqiga kirish", Ma'lumotlar huquqi (Data Law), Sechang nashriyoti, 2022.
4. Kim Do-gyun, Koreya jamiyatida adolat (justice) nima?, Akanet nashriyoti, 2020.
5. Kim Do-gyun, "Koreya huquqiy tizimi va adolat nazariyasi: adolatlilik (fairness), tenglik va imkoniyatlar tengligi (luck egalitarianism) – dastlabki tadqiqot", Seul Milliy Universiteti Huquq jurnali, 53-jild, 1-son, 2021.
6. Kim Do-seung, "Raqamli jamiyatda adolatlilikning qadriyati va unga oid diskurslar", Internet etikasi, 6-jild, 1-son, 2022.
7. Kim Won-ho, "Ma'lumotlar (Data) huquqiga kirish", Ma'lumotlar huquqi (Data Law), Sechang nashriyoti, 2022.
8. Kim Ja-hwe / Ju Sung-gu / Jang Shin, "Intellectual avtonom robotlarga elektron shaxs maqomini berish – Yevropa Ittifoqi rezolyutsiyasi misolida", Beopjo (Huquq jurnali), 66-jild, 4-son, 2017.
9. Nam Gi-eop, Adolatli davlat, Gaemagowon nashriyoti, 2010.
10. Michael Sandel (tarjimon: Hwang Gyu-jin), Adolatli deb o'ylashdagi yangilashuv (The Tyranny of Merit), Wiseberry nashriyoti, 2021.
11. Park Jong-bo, "Konstitutsiyaning 114 va 115-moddalari – Saylovni boshqarish komissiyasining tashkil etilishi va vakolatlari", Asosiy qonun hujjatlariga sharhlar (Konstitutsiya – sud hokimiyati va boshqa institutlar bo'limi), Koreya Konstitutsiyaviy huquq assotsiatsiyasi, 2009-yil dekabr.
12. Baek Young-hwa, "Onlayn platformalarni tartibga solish to'g'risidagi qonun loyihalarining asosiy mazmuni", KIRI Sug'urta huquqi sharhi – dolzarb masalalar tahlili, 2021-yil 25-oktabr.
13. Seo Jeong-hyeok, Nima uchun «Adolatli deb o'ylash» xato?, Communication Books nashriyoti, 2022.